

TEXNIKUM TALABALARIDA RAQAMLI KO'NIKMALARNI RIVOJLANTIRISH MUAMMOLARI

Timur Murodullayevich Xolmuxamedov
Professional ta'limni rivojlantirish instituti

Annotatsiya

Ushbu maqolada bo'lajak mutaxassislarning raqamli ko'nikmalarini rivojlantirishda raqamli transformatsiya sharoitida raqamli texnologiyalarni samarali qo'llash, ularda bilim, ko'nikma va malakalarni rivojlantirish, o'quv jarayonida elektron materiallarini raqamli texnologiyalar yordamida yetkazish, ta'limni raqamlashtirish sharoitida bo'lajak mutaxassislarning ham raqamli ko'nikmalarini takomillashtirishga doir muammolar o'rganilgan.

Kalit so'zlar: texnikum, raqamli texnologiyalar, raqamli ko'nikmalar, bo'lajak mutaxassis, ta'limni raqamlashtirish.

Mamlakatimizda ta'lim muassasalarida kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirishga, xususan, raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali texnikum talabalarida raqamli ko'nikmalarni rivojlantirishda yuqori malakali kadrlar tayyorlash masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Hozirgi kunda bo'lajak mutaxassislarni tayyorlashda raqamli texnologiyalardan amaliy jihatdan foydalanish orqali raqamli ko'nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan ilmiy-nazariy tadqiqotlarga ehtiyoj mavjud.

Bo'lajak mutaxassislarning raqamli ko'nikmalarini rivojlantirishda raqamli transformatsiya sharoitida raqamli texnologiyalarni samarali qo'llash, ularda bilim, ko'nikma va malakalarni rivojlantirish, o'quv jarayonida elektron materiallarini raqamli texnologiyalar yordamida yetkazish, ta'limni raqamlashtirish sharoitida bo'lajak mutaxassislarning ham raqamli ko'nikmalarini takomillashtirishga doir qator izlanishlar olib borilmoqda.

Professional ta'lim muassasalari talabalarida raqamli ko'nikmalarni rivojlantirish bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlarini tahlilini o'tkazish, raqamli ko'nikmalar mazmuniy va tarkibiy komponentlarini o'rganish shuni ko'rsatdiki, bugungi kunda kasbiy ta'lim tashkilotlarida faqat fanlarni o'qitish jarayonida talabalarda raqamli ko'nikmalarni rivojlantirish amalga oshiriladi. Texnikum bitiruvchilari kelajakda quyidagi raqamli ko'nikmalarni o'zlashtirishlari lozim:

- a) raqamli muhitda internet xizmatidan foydalanish ko'nikmasi;
- b) raqamli ta'lim resurslaridan foydalanish;
- c) ta'limiy saytlardan foydalanish;
- e) axborot texnologiyalaridan foydalanish malakasi;
- f) internet tarmoqlaridagi xavfsizlik qoidalarini bilishi.

Raqamli ta'lim muxitida ishlash uchun talabalarni tayyorlash ta'lim muassasasida quyidagi imkoniyatlarni yaratiladi;

-Talabalar uchun qulay o'quv vaqtini yaratish;

- ko‘p sonli talabalarni mashg‘ulotga jalb etish;
- katta hajmdagi o‘quv materiallarini bayon etish;
- taqdimotlar hajmi chegaralanmaganligi;
- multimedial vositalar orqali talabalarda murakkab texnologik ob‘ektlar va jarayonlar haqida real tasavvur hosil qilish.

Bu imkoniyatlar ko‘p hajmdagi o‘quv materiallariga ishlov berish, topshiriqlarni tez vaqtda bajarish, ko‘rgazmalilik yuqori taqdim etilishi, tez vaqtda ko‘pchilik bilimni baholash kabi afzalliklarni yaratadi.

Shuning uchun biz texnikum talabalarida raqamli ko‘nikmalarni rivojlantirish uchun quyidagi yo‘nalishlarda ilmiy va tashkil ishlarni amalga oshirish muxim deb hisoblaymiz:

- Professional ta‘lim muassasalari talabalarida raqamli ko‘nikmalarni rivojlantirishning hozirgi holatini o‘rganish va tahlil qilish;
- raqamli ko‘nikmalarni rivojlantirish bo‘yicha ta‘lim muassasasi doirasida qo‘shimcha o‘quv dasturlari va seminar treninglarni dasturlarini ishlab chiqish;
- dasturlarni ishlab chiqishda asosiy e‘tiborni ta‘limiy saytlar bilan ishlash hamda raqamli resurslarni ishlab chiqishga qaratish;
- Texnikum talabalarining raqamli ko‘nikmalarini rivojlantirish metodikasini ishlab chiqish va amalda joriy etish;

Professional ta‘lim muassasalari talabalarida raqamli ko‘nikmalarni rivojlantirishda suniy intellektlardan samarali foydalanish, ularning afzalliklari va kamchiliklarini bo‘yicha aniq tavsiyalarni ishlab chiqish.

Agar xar bir texnikumda yuqoridagi yo‘nalishlarda faoliyatlar amalga oshirilsa talabalarda raqamli ko‘nikmalarni yanada rivojlantirish imkoni bo‘lar edi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Axadova K. "BO‘LAJAK MUHANDISLARNI KASBIY FAOLIYATGA TAYYORLASHDA QO‘LLANILADIGAN ZAMONAVIY METODLAR" O'zMU xabarleri. 2023 1/4. Ijtimoiy-gumanitar fanlar turkumi. 41-43 b.
2. Abdurasulovich H. J., Qizi A. K. S. TEXNIK UNIVERSITETLARDA RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA BO‘LAJAK MUHANDISLARNI TAYYORLASH //Science and innovation. – 2024. – T. 3. – №. Special Issue 18. – C. 809-813.
3. Ахадова К. Бо‘лажак муҳандисларни компьютер моделлаштириш кўникмаларини такомиллаштириш тамойилари //Цифровизация современного образования: проблема и решение. – 2023. – Т. 1. – №. 1. – С. 144-146.
4. Akhadova K., Usanov M., Adilov B. Factors to improve computer modeling skills of future engineers in the context of digitalization //AIP Conference Proceedings. – AIP Publishing, 2024. – T. 3045. – №. 1.
5. Hamidov J., Akhadova K. Usage of modern information technologies in technical education //AIP Conference Proceedings. – AIP Publishing, 2024. – T. 3045. – №. 1.